

Ona yurti - oltin beshig

TONG yulduzi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN»
XAYRIYA JAMG'ARMASI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi Sotuvda erkin narxda
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan № 50-51 (66435-66436) 2003 yil 15 dekabr dushanba

HUSH KELGIN «MEHR VA MURUVVAT YILI»M!

Mehr va muruvvat deganda, biz avvalo, jamiyatimizda mehr-shafqatga muhtoj bo'lgan nogironlar va yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga, boquvchilaridan judo bo'lgan, yolg'iz yashayotgan odamlar va keksalarga g'amxo'rlik ko'rsatishni tasavvur qilamiz...

Islom KARIMOV.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan poytaxtimizdagi «Turkiston» saroyida o'tkazilgan tantanali marosimda Prezident Islom Karimov kirib kelayotgan 2004 yilni «Mehr va muruvvat yili» deb e'lon qildi.

Uch ming yillik tarixga ega xalqimizda ezgulik, yaxshilik, mehr-oqibat hamisha ulug'lanib kelingan. «Yaxshilik qil, suvga tashla. Yaxshilikni baliq bilar, baliq bilmasa xoliq bilar», degan hikmatli iboraning purma'nologiyasi bejiz emas. Biroq, ezgulik siyosat darajasiga ko'tarilishi insonni oliy qadriyat darajasida ko'rish, demakdir. Mustaqillik davrida e'lon qilingan yillar inson manfaatini himoya qilish, jamiyatda ahillik, mehr-oqibatlik, millatlararo do'stlik muhitini

mustahkamlab, shu maqsadlarga erishish uchun tegishli sharoit va imkoniyatlarni yaratib, bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirmoqda.

Nogiron, ota-onasiz qolgan, mehrga muhtoj bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni oilaga jamlab SOS mahallasini tashkil etish, ko'p bolali oilalarga yordam ko'rsatish, keksalarga xizmat qilish ham ezgulikning namoyishidir...

Kirib kelayotgan yil barchani yana ham mehrli, muhabbatli qilishi shubhasiz. O'z navbatida davlatidan yaxshilik ko'rganlar kelajakda O'zbekistonni yanada gullatib-yashnatishiga ishonchimiz komil.

Aziz bolajonlar, kirib kelayotgan «Mehr va muruvvat yili»mizda siz ham kattalar qatori ko'p xayrli, savobli ishlarga qo'l urishingizga ishonamiz. Maktabingizdagi, mahallangizdagi, ko'chako'yidagi yordamga muhtoj, mehrga tansha insonlar taqdiriga befarq bo'lmaysiz, degan umiddamiz. Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan tengdoshlaringiz xolidan xabar olsangiz, ularning o'ksik ko'ngillarini biroz bo'lsa-da ko'targan bo'lardingiz. Yangi yil bayramida o'z qo'lingiz bilan yasagan biror sovg'ami, yoki sevib o'ynaydigan o'yinchoqlaringizdan birortasini olib borsangiz, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.



Muharrama PIRMATOVA.

Ziyo tarqatuvchi vosita hisoblanmish davriy matbuotga obuna qizg'in davom etmoqda. Kundalik hayotdan darak beruvchi, ijtimoiy-siyosiy yangiliklardan boxabar

20 tadan ko'p obuna bo'ldi. Boshqa sinflar ham

20 TADAN 200 TAGACHA

qiluvchi, ko'ngilochar sahifalari bilan hordiq yozuvchi gazeta va jurnallarni nafaqat kattalar, balki bolalar ham o'qib borishi shart. Shunday ekan, maktabimizda biz ustozlar har yili obuna masalasiga jiddiy qarashga harakat qilamiz. Bugungi kungacha eng faol 5-sinf o'quvchilarimiz 2004-yil uchun «Tong yulduzi» gazetasiga

ularidan qolishmay, o'z gazetalariga obuna bo'lishmoqda. Rejamiz «Tong yulduzi» obunasini 200 taga yetkazish.



Rahimbek SHARIFZODA,
Jizzax viloyati, Mirzacho'l tumanidagi
Usmon Nosir nomli maktab o'qituvchisi. Surat muallifniki.

BIZ TERRORGA QARSHIMIZ!

Xotira muqaddas. Men ham qo'limga qalam olib, mehribon otajonimni xotirlab yozmoqchiman.

Otajonim juda mehribon, kamtarin va shirinso'z inson edilar. «Edilar» deyishimning boisi, ular hozir oramizda yo'qlar. Otajonim o'sha mash'um 1999 yil 16 fevral voqeasirining qurboni bo'lganlar. O'shanda men bor-yo'g'i 5 yoshda edim. Hozir ancha ulg'ayib-qoldim va ota mehrining qadrini yanada chuqurroq his qilyapman. O'rtoqlarimning otasi bilan qo'l ushlab ketayotganlarini ko'rsam, otajonimni qo'msayman. Dunyoda hech kimni ota mehri zor qilmasin. Fevral voqealari hecham takrorlanmasin. Biz bolalar TERRORga qarshimiz!



Menga shuncha g'am-alamni, - Barcha qabih illatlarni,
Keltirdilar yomonlar. Olib ketsin, yomonlar.
Jondan aziz otajonim, Ko'z yoshlarim uvoliga,
O'ldirdilar yomonlar. Qolib ketsin, yomonlar.

Nodira MAJIDOVA,
Toshkent shahridagi 70 - maktabning 4 - «A» sinf o'quvchisi.

4

«BOKS»

SHUNCHAKI MUSHTLASHISH EMAS...»



-deydi jahon chempioni
**Muhammadqodir
Abdullayev**

3



**QONUN
BILIMDONLARI
BELLASHDILAR**



**QORBOBO QAYERDA
YASHAYDI?**

7





«MENING OZODA SHAHRIM»

1 noyabrdan 1 dekabrgacha o'tkazilgan oyligimiz ana shunday nomlandi. Nomidan ham ko'rinib turgan ozodalik oyligimizda «Furqat», «O'tkir» nomli mahallalardagi maktablar shuningdek, bizning maktabimiz o'quvchilari ham faol ishtirok etdilar. Mahallamiz faollari, ustozlarimiz boshchilik qilgan hasharimiz uyushqoqlik bilan o'tdi. Har bir sinfga bittadan ko'cha biriktirib berildi. Maktabimiz hududida kattakon o'ra qazib, chiqindilar, hazon yaproqlarini ko'mib tashladik. Bu tadbir haqida «Navro'z» radiosida jonli muloqot olib borildi. Akmal Ikromov tumani «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati, «Kamalak» tashkiloti, Mahalla yoshlar markazidan muntazam kelib tekshirib turdilar. Biz bu tadbirda shijoat bilan mehnat qilib, g'olib bo'ldik. Endilikda shahar miqyosidagi bellashuvga tayyor turibmiz.

Munisa KOMILOVA,

Akmal Ikromov tumanidagi mehnat ta'limiga yo'naltirilgan 14-maktabning 3-sinf o'quvchisi.

IMKONIYAT YOSH TANLAMAYDI

Siz hech bo'lmaganda bir marta odamning imkoniyatlari haqida o'ylab ko'rganmisiz? Bir o'ylab ko'ring-a. Chunki inson hamma narsaga qodir, insonning miyasi 20000 kitobdagi axborotni o'ziga sig'dira oladi. Eng muhimi shuki, bu imkoniyat yoshga bog'liq emas. Masalan, Buyuk mutafakkir Ibn Sino to'rt yoshida Qur'onni to'la yod olgan. Aleksandr Tolstoy olti yoshida fransuz, nemis, ingliz tillarini bilgan. Griboyedov o'n bir yoshida Universitetga o'qishga kirib, olti yilda uchta fakultetni bitirgan. Chingiz Aytmatovga besh yoshida tarjimonligi uchun haq to'langan. Bobur o'n ikki yoshida davlatni idora qilgan. Gyote to'qqiz yoshida nemis, lotin va grek tillarida she'r yozgan. Paskal o'n besh yoshida birinchi ilmiy ishini himoya qilgan.

AQShning Ganadagi elchisi bo'lgan Shirli Teshl to'rt yoshida filmda suratga tushgan, olti yoshida «Oskar» mukofotini olgan.

Shunday javohir egasi ekanmiz, keling, uni tinch va ezgu maqsadlarda ishlataylik.

Gulshan SHOQOSIMOVA.

TDTU qoshidagi akademik litsey o'quvchisi.

OLG'A INTIL, QIZALOQ

Siz suratda ko'rib turgan, butun dunyoni ko'zlariga sig'dirmoqchi bo'lgan qizaloq Madina Oqjigitova bo'ladi.

U Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 41-umumiy o'rta ta'lim maktabining 5- «B» sinfida tahsil olmoqda.

Maktabimizda yil bo'yi ko'plab tadbirlar o'tkazilib, unda o'quvchilar faol ishtirok etmoqdalar. Tadbirlarda bolalar tomonidan ijro etilgan she'r, qo'shiq, tabrik so'zlari va sahnalashtirilgan chiqishlar o'quvchilarda katta taassurotlar qoldiryapti. Nutqlarini boyitib, fikr doiralari kengaytirib bormoqdalar.

Maktabimizda yaqinda «O'zbek-teatr» qoshidagi Turon yoshlar teatr studiyasi ishtirokida «O'zligingni unutma» nomli teatrlashtirilgan muloqot spektakli bo'lib o'tdi. Unda berilgan savollarga ham Madina Oqjigitova aniq va to'liq javoblar berib, zexniligini ko'rsatdi. Biz Madinani kelgusida chuqur bilim, ahloq va odobda o'rtoqlariga namuna bo'ladigan, komil inson bo'lib yetishishiga ishonamiz.

M. MANSUROVA.

Maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor muovini.



DO'STLIGIMIZ ABADIY BO'LSIN

Insonga yaxshi - yomon kunlarida sadoqatli do'sti hamroh bo'ladi. Kimdir eng yaqin sinfdoshini do'stim, desa, yana kimdir bolaligidan o'ziga do'st topadi. Do'stlik - bu bir navnihol. U ikki qalbnig mehr chashmasidan suv ichib, ildizlari tobora mustahkamlanib boradi. Do'st insonni yagona suyanchi bo'ladi. Men ham sinfdoshim, sirdoshim Gavhar bilan ikkinchi sinfdan buyon dugonamiz. U bilan har doim birgamiz, ko'pchilik bizga havas bilan qaraydi. U bilan bolalik yillarimizni eslashni yaxshi ko'ramiz. Shulardan birini sizlarga aytib

bermoqchiman:

-Biz o'shanda 2-sinfda o'qir edik. Maktabimizga sirk kelib qoldi. Sinfdoshlarim bilan sirkdan chiqqach, darsga kirgim kelmay qoldi. Bir payt qaragam, Gavhar singlisi bilan sirkka kirmoqchi bo'lib turgan ekan. Men ham unga qo'shilib, yana sirkka kirdim. Keyin darsga kirmoqchi bo'ldik, lekin qanday bahona topishimizni bilmay qoldik. Sinfga kirgach, ustozimizga Gavhar: -Ustoz, sirk ko'rishga singlimni olib kelgandim. Lekin u yig'lagani uchun Kamola bilan birga uyga tashlab keldik, dedi. Ustoz bizni joyimizga o'tqazib qo'ydi. Shu yolg'on gap bizga turtki bo'ldi-yu, u bilan qalin dugona bo'lib qoldik...

Nima bo'lganda ham, men uchun eng muhimi, ikkimizning o'rtamizdagi, ishonch yo'qolmasin. Do'stligimiz abadiy bo'lsin.

Suratda: Yaqin dugonam Gavhar bilan.

Kamola ERGASH qizi.

Toshkent viloyati, Toshkent tumani, A.To'laganov nomli 7-umumta'lim maktabning 9- «B» sinf o'quvchisi.

GO'ZALIKKA NE ETSIN...

Mana, 2003 yilning ham poyoniga yetib qoldik. Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur yilimiz «Obod mahalla yili» deb e'lon qilingan edi. Bu yil deyarli barcha mahallalar obodonlashtirildi, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, bizning mahallamiz ham boshqa mahallalar kabi obodonlashtirildi. Yo'llarimiz asfaltlandi, obodonlashtirish ishlari olib borildi. Bolalar uchun qurilgan sport maydoni ular quvonchiga quvonch qo'shdi. Ko'chalarimizda qad ko'targan ko'rkam uylarni, ularning old tomonlariga ekilgan gullarni ko'rib, dilingiz yayraydi. Ayniqsa, kechalari ko'chamizni xuddi kunduzdagidek yoritib turgan turli rangdagi chiroqlarni aytmaydizmi? Bir so'z bilan aytganda, bu yil barcha mahallalarimiz, ko'chalarimiz chiroyli va ko'rkam bo'ldi. Ha, obodlikka, chiroyga nima yetsin? Axir dunyodagi barcha insonlar go'zallik shaydosi-ku, shunday emasmi?

Nazokat AHMADJONOVA,

Farg'ona viloyati, Oltiariq tumani, 10-sinf o'quvchisi.



Oltinchi sinfda o'qib yurgan kezlaring bir takrorlab ber-chi?», deb so'rab olti yillik umring bekor o'tibdi-qoldim. Nega deganda, bo'lganim sezilib qolgan maskanlariga ketishdi.

Men ijodga, izlanishga qiziqib ketdim. «Xalq ovozi» redaksiyasiga borib Mahfuza Rahimova bilan samimiy suhbatlashdim. Ular menga «Yosh ijodkorlar» to'garagiga qatnashishni maslahat berdilar. Shu kundan o'zimda o'zgarish yuz berayotganini sezib, ruhlanib ketdim. Maqolalar yoza boshladim. Mehnatlarim zoye ketmadi. Ijodim poytaxtimiz va tumanimiz gazetalarida sekin-asta yoritila boshladi. Bularning barchasiga dadamning birgina tanbehlari va tinimsiz izlanishlarim sabab bo'ldi. Buning uchun bir umr ulardan minnatdorman.

Dilhoda ABDULLAYEVA,
Farg'ona viloyati, Yaypan shahridagi 1-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

KASB TANLA, HUNAR O'RGAN, YOSH ZAMONDOSHI

Navoiy viloyat hokimligi Xalq Ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi viloyat o'quvchilar saroyida yoshlarni tarbiyalash, ularga kasb-hunar o'rgatish borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Markazda «Ijodiyot», «Bioekosan», «Texnik ijodiyot», «Sayyoh-o'lkashunoslik» kabi to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Ijodiyot bo'limidagi mavjud 15 ta to'garakda 540 nafar o'quvchilar ikki smenada shug'ullanishadi. Ularga mohir to'garak

tadbirda ota-onalar, mahalla faollari ishtirok etdilar. Markazimizda va turar joylarda faoliyat olib borayotgan to'garaklarni doimiy nazorat qilib, mashg'ulot o'tish jarayoni tahlil qilib boriladi.

«Bioekosan» bo'limining o'zida 12 ta to'garak faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 440 dan ortiq o'quvchilar bu to'garaklarga qatnashadilar. Yaqindagina bo'lib o'tgan viloyat miqyosidagi «Bolalar va suv» ekofestivalida Navoiy shahridagi 8- maktabning «Tomchi» guruhi 1-o'rinni egallab, respublika ekofestivaliga qatnashish imkonini qo'lga kiritdi.

Viloyatimizda Texnik ijodiyoti yo'nalishida 70 ta to'garak bo'lib, unda 2350 nafar o'quvchilar qatnashishadi. Ularga 70 nafar tajribali to'garak rahbarlari 33 turdagi kasb-hunar sirlarini qunt bilan o'rgatishmoqda. Markazimizda yangi yo'nalishdagi «Yosh hamshira», «Yosh kashfiyotchilar» to'garaklari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Ilg'or, tajribali

to'garak rahbarlarimizning ish tajribalari ommalashtiriladi. Haftaning har seshanba kunlari o'tkaziladigan uslubiy yig'ilishlarda «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha tamoyillar» risolasi, Konstitutsiya saboqlari, ommaviy axborot yangiliklari muntazam tanishtirilib boriladi. O'quvlar natijasiga ko'ra har chorakda to'garaklarning rahbarlaridan test sinovlari olib borilayapti.

Markazimizdagi to'garaklarga muntazam qatnayotgan o'quvchilarimizning kasb-hunar borasidagi bilimlari boyib borayotganidan biz ustozlar mamnunmiz.

Maysara RAHMATOVA,
Navoiy viloyati Xalq Ta'limi boshqarmasi
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi boshlig'i.



rahbarlari saboq berib kelmoqdalar. O'quv yilining boshlanishida qayta jihozlanib, ko'rgazmali qurollar, devoriy gazetalar bilan bezatilgan xonalar o'quvchilarning didiga mosdir. Bo'limdagi barcha to'garaklarda qator tadbirlar o'tkaziladi. «Ochiq eshiklar kuni», «Salom mening hunar maskanim» kabi ommaviy tadbirlarimizda o'quvchilarimiz va o'qituvchilarimiz faol ishtirok etishib, g'oliblarga markaz ma'muriyati tomonidan «Faxriy yorliq»lar berildi. O'quvchilarning qiziqishi bois yana 23 ta to'garak yangidan tashkil etildi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 14 yilligiga bag'ishlab «Ona tilim-jonu dilim» mavzusida markaz, maktab va mahalla hamkorligida adabiy, badiiy, musiqiy kecha o'tkazildi. G'oyat qiziqarli o'tgan bu

HAFTALIK

MAZMUNLI O'TDI

Barchamizga ma'lumki, noyabr oyida «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»

q a b u l
qilingan

Huquqingizni bilasizmi?
kunning 14

yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan respublikamiz maktablarida haftaliklar o'tkazildi.

Jumladan, bizning maktabimizda ham ushbu sanaga bag'ishlab o'tkazilgan haftalik katta tantanaga aylanib ketdi. Uning ochilish marosimida viloyat «Bolalar» jamg'armasi raisi Xushnoza Akbarovna, viloyat «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Kengashi raisi o'rinbosari, Viloyat Bolalar Tashkiloti raisi Barno Jabborova, Zangiota tuman «Kamolot» YOIH raisi Fazilat Yusupovalar ishtirok etishdi. Mehmonlar o'quvchilar bilan haftalik



davomida qiziqarli davra suhbatlari, savol-javoblar uyushtirdilar, ularga kerakli yo'l-yo'riqlar ko'rsatishdi.

Mana shunday tadbirlar ko'plab o'tkazib turilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi, o'quvchilarimiz o'z haq-huquqlarini tanib ulg'ayishardi.

Mavluda SAMANOVA,
Toshkent viloyati,
Zangiota tumanidagi
14 - maktab ma'naviy-
ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari.

ADOLAT

*Olam ichra eng aziz,
Ona diyor muqaddas.
Diyorimni yashnatgan
Mangu bahor muqaddas.*

*Yurtim uchun e'tiqod,
Doim qanot bo'lgaydur.
Og'ir-og'ir damlarda
Chidam-sabot bo'lgaydur.*

*Aziz elim imoni-
Ko'hna tumor muqaddas.
Erk so'zini uyg'otgan
Har bir nahor muqaddas.*

*E'tiqodi bor ekan,
Xalqim hayot bo'lgaydur.
Dilidagi navosi
O'tlug' bayot bo'lgaydur.*

*Kezib tursin muqarrar,
Adolatning sabosi.
Yangrayversin muzaffar,
Haqiqatning sadosi.*

*Kezib tursin muqarrar,
Adolatning sabosi.
Yangrayversin muzaffar,
Haqiqatning sadosi.*

Nodira SHAMSIYEVA,
TDIU qoshidagi iqtisodiyot gimnaziyasining
II-sinf o'quvchisi.

QONUN BILIMDONLARI BELLASHDILAR

Yaqinda Murod Hamroyev nomli arab tiliga ixtisoslashgan 29 - maktabda «Konstitutsiya

Konstitutsiyani o'rganamiz

- baxtimiz poydevori» shiori ostida ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi. Tanlovda 9 - «A» sinfning «Qonun», 9 - «B» sinfning «Adolat», 9 - «V» sinfning «Qalqon» hamda 9 - «G» sinfning «Advokat» nomli guruhlari tanishuv, savol-javob, sahna ko'rinishi, sardorlar bellashuvi, erkin mavzu shartlari bo'yicha o'zaro

bellashdilar. O'quvchilarning huquqiy bilimlarini, chiqargan devoriy gazetalarini, guruh belgilarini haqqoniy baholagan hakamlar hay'ati a'zolari 9 - «V» sinf o'quvchilarini birinchi, 9 - «A» sinf o'quvchilarini ikkinchi hamda 9 - «G» sinfning yosh huquqshunoslarini uchinchi o'ringa loyiq deb topishdi. G'oliblar «Maqto'v yorliq»lari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Nigora HUSNIDDIN qizi.



-Muhammadqodir, qalbingizda boksga bo'lgan muhabbat ilk bor qachon uyg'ondi?

-Bolaligimda sal nimjonroq edim. Lekin ichimdan baquvvat, kuchli bo'lishni orzulab yurardim. Bir kuni (5- sinfda o'qib yurgan paytlarim) o'rtoqlarim bilan mashhur bokschi Rufat Risqiyev haqidagi filmni tomosha qildik.

O'sha kuni yuragimda men ham zo'r bokschi bo'laman, degan orzu qattiq o'rnashib qoldi.

O'rtoqlarimning deyarli ko'pchiligi «Spartak» stadionidagi boks

to'garagiga qatnayotgan edilar. Men ham tengqurlarim qatori to'garakka qatnay boshladim. Boks olamiga ilk qadamni o'sha kuni qo'ygan edim, desam yanglishmayman. Boks bo'yicha murabbiyim Turdiali O'zg'unovdan bu sport turining sir sinoatlarini o'rgana boshladim.

-Maktabda qanday baholarga o'qirdingiz?

-Rostini aytsam, baholarim unchalik yaxshi emas edi. Hatto maktabga bormayman, deya rosa xarxasha qilgan ekanman, har kuni maktabga onam erinmay birga borardilar. Maktabdagi birinchi muallimim To'tixon aya Tillaboyevaning shirinso'zligi, muloyim va mehribonligi hamon yodimda. O'shanda, endi oying charchadilar, ertalab turgin-da, o'zing maktabga chopqillab kelavergin. Qara, qizlar ham o'zlari kelishyapti, deganlar. Bu gapdan uyalibmi, xullas, ikkinchi oydan boshlab o'zim

maktabga qatnay boshlaganman.

-Kuchli bokschi bo'lish uchun nima qilish kerak?

-Men juda

«BOKS

SHUNCHAKI MUSHTLASHISH EMAS...»

yoshligimdanoq tongda turib, yugurardim. Bu odatni menga otam o'rgatganlar. Shuningdek, badantarbiya mashqlarini ham kanda qilmasdim.



Menimcha, bolalikdan sportning qaysi turiga mehr qo'yilsa, uni mahkam ushlab, astoydil shug'ullanish kerak.

-Siz 1987 yildan boshlab Andijondagi sport maktabida shug'ullangansiz. U yerdagi murabbiyngiz kimlar edi?

-Sport maktabida boks sirlarini Lochin Sodiqovdan, keyinroq esa Shuhrat

Kelajak qanotlari

Aziz bolajonlar, orangizda boksga sevmaydigan, musobaqalarni qiziqib tomosha qilmaydiganlar topilmasa kerak-a?! Mohir bokschiarning nomlarini birma-bir sanab bera olishingizni, ularga havas qilishingizni ham yaxshi bilamiz.

Muhammadqodir Abdullayev ana shu ro'yxatingizning boshida tursa kerak-a, bugun e'tiboringizga ana shu mohir bokschi bilan qilgan suhbatimizni havola qilamiz. Chempion akangizning bolaligi, orzu va umidlari siz uchun qiziqarli bo'ladi, degan umiddamiz.

Abdullayevdan o'rgana boshladim. Mashg'ulotlarda jiddiy shug'ullanishlar sport maktabimizning qonun-qoidasi edi. Mehnatdan qochmaslik bizni chiniqtirdi, g'alabalar tomon eltdi.

-Bolalik xotiralaringizdagi qaysi voqealarni ko'proq eslaysiz?

-Bir kuni to'garakdan qaytayotsak, yo'lda biz tengi ikki-uch bola kutib turgan ekan. Hujum qilmoqchi bo'lganlarida, o'rtoqlarim, sen ham bokschi-san-ku, deb gij-gijlashdi. Ammo men ular bilan urushmadim. Chunki murabbiylarim, boks shunchaki mushtlashish emas, deb ta'lim berishgan edi-da. Xullas, bolalar bilan behuda urishmasdim.

-Siz Jahon va Olimpiada chempionisiz. Bugungi yosh sportchilarning sportdagi kelajagini qanday tasavvur qilasiz?

-Ishonch bilan aytishim mumkinki, bugungi bolalar orasida minglab Arturlaru, minglab Muhammadqodirlar bor. Hali ular o'zlarining qudrati bilan butun dunyoni lol qoldiradi.

-Samimiy suhbatngiz uchun rahmat!


Ma'mura MADRAHIMOVA
suhbatlashdi.

Boks eng qadimgi sport turlaridan hisoblanadi. Boks birinchi bo'lib Angliyada paydo bo'lgan. Bokschi ilgari qo'lqopsiz jang qilishgan. Keyinchalik jarohatlarning oldini olish uchun qo'lga latta bog'lab, kuch sinashgan. Bora-bora qo'lqop o'ylab topilgan. Endilikda boks yurtimizda ommaviy tus olmoqda.

Tahririyatdan: Bolajonlar, sizga sovg'ali savol opishmog'imiz bor. Kimda-kim Muhammadqodir Abdullayevning qachon, qaysi mamlakatlarda chempion bo'lganligini to'g'ri va aniq yozib yuborsa, irlil sovg'aga egabo'ladi.

GAP YOSHDA EMAS...

Boshda, deganlari rost ekan. Chunki hozirgi kunda o'zlari yosh bo'la turib katta-katta ibratli ishlarga bosh bo'layotgan tengdoshlarimiz juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Bizning Muhammadjon Fozilov nomli shirkat xo'jaligimizda faoliyat olib borayotgan Komil aka Odilov ham ana shunday izlanuvchan yoshlardan biri. Uning sportga qiziqishi dastlab o'z akasi Murod Odilovga havasdan uyg'ongandi. Bora-bora bu havas maqsadga aylandi. 8 yoshlik chog'idanoq ustoz - qora belbog' sohibi Ravshan Jaloliddinovdan karate sirlarini o'rgana boshladi. Shogirdidagi qiziqishni, intilishni, maqsad yo'lidagi qat'iyatni payqagan ustozining kelajagiga katta umid bog'ladi. Komiljon Qarshida bo'lib o'tgan musobaqada faxrli 1 - o'rinni egallab qaytganda, ikki karra O'zbekiston chempioni, qora belbog'



Saida MASHRAPOVA,

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 4 - umumta'lim maktabining 9 - «A» sinf o'quvchisi.

Suratda: Komil Odilov shogirdlari bilan.

sohibi bo'lganida hislari aldamaganiga amin bo'ldi, quvonchdan boshi ko'klarga yetdi...

Endilikda Komil akaning o'zi ham ustoz. 2001 yilda maktabimiz qoshida yosh karatechilar to'garagini ochib, yosh sportchilarga saboq bera boshladi. Keyinchalik ish faoliyatini kengaytirib, maktabimizning M.Fozilov shirkat xo'jaligidagi filialida va «Shohruh» klublarida ham sportga mehr qo'ygan bolalarga murabbiylik qila boshladi.

Hozirgi kunda Komil akaning Dilshod Yusupov, Islom Egamberdiyev, Sobir Muhammadjonov, Fozil Sobirovdek barcha musobaqalarda faol qatnashib, faxrli o'rnlarni egallab kelayotgan yuzlab shogirdlari bor.

-Shogirdlarim mendan ham balandroq cho'qqilarni zabt etishsin!

Komil akaning shiori ana shunday.

Qishlog'imizda Eshmat degan bir kishi bor. Ular hech kimga qo'shilmaydilar. Hatto to'y-tomoshalarga ham chiqmaydilar. Yaqinda

bosib ketadi... Ularning oilasi ko'p joylarga ko'rsatishadi. Eshmat aka asta-sekin o'zlariga kela boshlaydi, lekin dog'lar ketmaydi.

JINLAR

Bir kuni kechasi Eshmat aka o'rinlarida yo'q bo'lib qoladilar. Ulardan

biznikida iftorlik bo'ldi. Ularni shuncha zo'r lasak ham chiqmadilar, dadamdan buning sababini so'raganimda, ular menga shu voqeani aytib berdilar: ...Qishlog'imizning eng chetida bir tepalik bo'lardi. Biz ana shu tepalikdan qishda sirpanchiq uchib pastga tushardik.

O'shanda men o'spirin yigit edim. Eshmat aka u paytlarda ekskavatorchi edilar. Bir kuni o'sha tepalikka qator mashinalar qatnay boshladi. Qarasak, Eshmat aka ekskavatorda tepalikdan tuproq qazib, mashinalarga ortayaptilar. Bir kuni kechqurun odamlar allakimning qattiq baqirayotgan ovozi eshitib qolishadi. Odamlar ko'chaga chiqib, ovoz tepalik tomondan kelayotganini bilib qolishadi. Borib qarashsa, u yerda Eshmat aka telbanamo tepalikka qarab allanimalarni ishora qilayotganini ko'rishadi. Eshmat akani uyiga olib kelishadi. Lekin u odamlarni ko'rib, nimadandir qo'rqanday tinmay baqiraveradi. Ertasi kuni Eshmat akaning tanasini oq-pushti dog'lar

xavotir

TEPALIGI

bolalari o'sha tepalikdan topishadi. Eshmat aka xuddi birov bilan gaplashayotgandek chordona qurib olib, qo'llarini paxsa qilib baqirib-baqirib gapirayotganmishlar. Ular o'zlariga kelgach, bolalarini ko'rib, ko'rdilaringmi bu yerdagi odamlarni ko'pligini, dermishlar. Qishloq keksalari bu yerda bir gap bor, deb Eshmat aka kimlar bilan gaplashishini so'rashibdi. Shunda Eshmat aka o'sha kechada bu yerga juda ko'p odamlar yig'ilib, ularni kaltaklashganini, o'shandan keyin bu yerga keladigan bo'lganlarini aytib beribdilar. Bu voqeadan keyin keksalar bu tepalikka jinlar makon qurishganini, boshqa ularni bezovta qilmaslik kerakligini aytishibdi.

Eshmat aka o'shandan buyon odamlarga qo'shilmaydigan bo'lib qolibdilar. Oy to'lgan kunlari esa bolalari Eshmat akani o'sha tepalikdan topib kelisharmish...

Elmurod XOLMURODOV,
Toshkent viloyati, Parkent tumani.

Bir kuni uyimizga amakimning o'rtoqlari yig'ilishdi. Ular meni ham o'z davralariga chaqirib olishdi. Biri-biridan qiziqarli voqealar, tasodiflar haqida gapira boshlashdi. Shunda Aziz degan o'rtoqlari aytib bergan voqea hammani vahimaga soldi. Uni men sizlarga ham aytib bermoqchiman:

Bu voqea Rossiyaning Volga daryosi qirg'oqlarida yuz bergan ekan. Bir guruh sobiq kursdoshlar Volga daryosining narigi qirg'og'idagi o'rmonzorda yilda bir marta uchrashishar ekan. Oxirgi borganlarida ular g'alati voqeaning guvohi bo'lishibdi. Kursdoshlardan Volodya, Ivan, Kostya va Aziz aka o'rmonzorga kirishibdi. U yerdagi kichkinagina uychadan tutun chiqayotganini ko'rib, hayron bo'lishibdi.

-Bu yerga kim keldiykin? Bizdan boshqa odam bu uyni bilmasdi-ku,- deyishibdi.

Ular uyga kirib kartoshka qaynatib o'tirgan bir cholni ko'rishibdi. Chol o'zini Matvey deb tanishtiribdi. Matvey amaki ularni mehmon qilibdi va bu yerga qanday kelib qolganini so'zlab beribdi:

-Men avvallari ko'p ichadigan, yomon odatli yigit edim. Traktor haydardim. Bir kuni mana shu o'rmon yoqalab uyga ketayotgandim. Qattiq mast edim. Shu payt qarshimda chiroyli bir qizni jilmayib turganini ko'rib qoldim. Bu qiz ko'hna kiyimda kiyingan edi. U menga adashib qolganini aytdi. Men esa uning chiroyiga mahliyo bo'lib qolibman. Shunda u o'rmonzorga kirib keta boshladi. Men uni to'xtatdim. Shunda uning nigohlari sovuqlashib, ko'zlari qonga to'lib, meni bo'g'a boshladi. Kutilmagan tajovuzdan o'zimni yo'qotib qo'ydim. Shu payt chiroyli qizning yuzlari chirib ketgan yuzga aylana boshladi. Men jon-jahdim bilan bo'ynimdagi xochimni (ruslarda krest taqib yuriladi) yulib olib, uning yuziga tutdim. Shu zahoti u yo'q bo'lib qoldi. Shundan keyin men ichishni

tashladim. Odamovi bo'lib qoldim, negadir shu o'rmonzorga kelgim kelaverdi. Keyin shu yerga kelib yashay boshladim...

Matvey amaki gaplarini tugatishi bilan eshik taqillabdi.


Aziz akaning Volodya degan o'rtoqlari borib,

MALIKANING

SOVUQ NIGOHI

eshikni ochibdilar. Qarashsa, bir chiroyli qiz eshik tagida turganmish. U: «Anavi yerda erimning oyog'i qayrilib ketdi. Iltimos, yordam beringlar», - debdi. Matvey amaki Volodyaga bormaslikni ishora qilsalar ham, u eshikdan chiqib ketibdi va shu ketgancha tonggacha qaytmabdi...

Volodyani ular ertasi kuni tushda topishibdi. U bir tepalikda g'ujanak bo'lib yotib olib, bo'ynidagi xochni mahkam tutib olgancha allanimalar deya yotgan emish. Volodya uch-to'rt kun o'ziga kela



olmabdi. Ular o'rmonni tark etishgandan keyingina Volodya o'zini yaxshi his qilibdi. Mahalliy odamlarning aytishicha, qadimda bir malikani avom xalqqa ko'p zulm qilgani uchun o'rmonga ikki monax ayollar bilan birga surgun qilishgan ekan. Lekin malika ularni o'ldirib, qishloqqa chiqishga yo'l topa olmay, shu o'rmonzorda vafot etgan ekan. Uning ruhi esa o'rmonda vaqti-vaqti bilan kezib yurarkan. Unga duch kelgan insonni esa o'zi bilan olib ketishga chog'lanarkan...

Xurshid SHERMATOV,
Toshkent viloyati,
Yuqori Chirchiq tumani,
Do'stlik jamoa xo'jaligi.

QAYTING, SIRDOSH LAYLAKLAR!

Tengdoshlaring ijodi

Ko'hna falak afsona qismi,
Sharq mash'ali, go'zal Buxoro.
Har bir naqshing moziy tilsimi,
Har toshingda bor aksu sado.

Olis, qadim dunyo beshigi,
Madaniyat o'chog'i o'zing.
Yetti iqlim buyuk sharifi,
Nurga to'ldi kecha-kunduzing.

Ammo o'tmish zolim xotira,
Yarang tirnab, oroming buzar.
Malham izlab tinchimay sira,
Ajdodlarning pok ruhi kezar.

Oltingga teng tuproq, toshingga,
Ega bo'lgan qonxo'rlar zo'r lab.
Qilich tig'lab sho'rlik boshingga,
Toptaganlar g'ururing xo'r lab.


G'ijduvoniyo xojai-olam,
O'z yurtida bilmagan hech kim.
Naqshbandiy qabrlarin ham,
Pinhon tutgan qamishlar dotim.

Ne-ne yovuzliklar guvohi,
Minorai Kalon parishon.
Tushlarida ko'radi gohi,
Poyida ming begunoh qurbon.

Daryodek jim, tog'lardek vazmin,
G'am-alamga cho'masan xomush.
G'urbatlarga chidolmay sekin,
Bag'ringni tark etdi laylak-qush.

Ozod bo'ldik, bandilik bitsin,
Sitamlarning qulatgin tog'in.
Och bag'ringni uchirib ketsin,
Erk shamoli qayg'u-g'am dog'in.

Yangi zamon, yangi asrda,
Najot topsin ezgu tilaklar.
Qaytib kelib gumbaz qasrda,
Oshiyon topsin sirdosh laylaklar.



Shahnoza RAVSHANOVA,
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi 2 - ixtisoslashtirilgan maktabning 6 - «V» sinf o'quvchisi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Ayni shu topda xayolimni yana Oqtosh egalladi: «Qiziq, buni u qayoqdan sezdiykin? Meni xabardor qilgani, uyg'otgani ataylab kelganga o'xshaydi. Boz ustiga tushimda ayon bo'lgani-chi? Oqtosh bo'lmaganida yerda cho'zilgan oyog'imdan, shim baridan ichkariga kirsam...» - bu tasavvurdan jon-ponim chiqib, beixtiyor shimim barini silkitdim. So'ng, nariroqda turgan uzun va yo'g'onroq cho'pni oldim-da, olisroqda turib, o'to'lanlarni qo'zg'atdim. Butun vujudim jimirlagancha hamma yoqqa ko'z-quloq bo'ldim. Ko'rinib qolsa, nima qilarimni o'ylab ham ko'rganim yo'q. O'ldirish niyatidan esa batamom yiroqman. Bunga ikkita asosim bor. Avvalo, zararlami, foydalimi, jonli narsani jonsiz qilish, qonini to'kish batamom tabiatimga zid. Undan keyin ilonni o'ldirish uning jufti o'zingdan, yohud yaqin odamingdan o'ch olarmish, degan gaplar ongimga singib qolgan. Shu bois ham bundan ikki yilcha avval mana shu xonamizda g'ala'i holat ro'y bergan.

O'shanda uylar qurib bitkazilmagan, pol yo'q, havo kirishi mo'ljallangan teshiklar ochiq, shunday esa-da, xonaga ikkita temir karavot qo'yib, yotib yurardik. O'sha yili ham yoz nihoyatda issiq kechgan, shaharda vaqt o'tkazish qiyinlashgan, nevaralarni ham dala-hovliga olib chiqqan edik. Ko'pincha pol-taxtasi bor ayvonda o'tirardik. Nima ish bilandir xonaga kirgan ayolim vahima aralashgan, biroq sekin ovozda:

-Dadasi, bu yoqqa qarang. - deb qoldi. Shoshib bordim. Ovoz ohangidan bir nimani sezdimi, besh yoshli nevaram Feruza mendan oldin buvisi tomon oshiqdi. Buvisi esa uni qaytarishga urindi:

-Bor, ovqatingni ye, sani chaqirganim yo'q.

-Ha, nima gap?-so'radim ayolimdan.

Hamon o'rnidan siljimay turgan Feruzaga buvisi bosh tebratib qaradiyu nim qorong'iroq burchakka ishora qildi:

-Anavunga qarang...

Yarim quloqlik qo'ng'ir arqonga o'xshash bir narsaning cho'zilib yotganiga ko'zim tushdiyu, seskanib ketdim. Shu topda olam-jahon ko'zimga tor ko'rindi: uyda kichik bolalar, kelin... Ammo holatimni sezdirmaslikka tirishib:

-Ilon... dam olib yotibdi, - dedim pastgina tovushda. Buni eshitib, Feruza sakragancha orqasiga qaytdiyu, singillariga xabar berdi:

-Ilo-on! Bizning uyimizda ilon bor!

-Ilon! Qani?- boshqa bolalar ham chopqillashgancha xonaga yopirildilar, qiziqsinib, opalari ko'rsatgan burchakka tikildilar.

Buvisi ularni haydashga urinarkan, mendan so'radi:

-Nima qilamiz? O'ldirasizmi? Juda xavfli-ku.

-O'ldirmang, bobojon, o'ldirmang,-menga yopishib yalindi Feruza. Boshqalari ham unga jo'r bo'lishdi:- O'ldirmang, bobojon.

Bu orada o'zimni bosib oldim-da, ayolimga: -Sayyora, san uni ko'zdan qochirmay, qarab tur, man hozir,-deya tashqari chiqib, uzun kaltak topib keldim. Nevaralarim yana yalinishga tushishdi.

«Tavba, - deyman o'zimcha, - ilonni ko'rib, qo'rqishmaganiga hayronman. Qilt etishmaydi-

ya. Lekin qo'rqitish ham xavfli...»

-Qani, hammalaring ayvonga o'tinglar, - dedim buvisiyu bolalarga.

-Nima qilasiz? O'ldirasizmi?-yig'lamsirab, ko'zlarimga tikildi Feruza.

OQTOSH

(Hikoya)

-Yo'q, haydab yuboraman, -dedimu, kaltakni ilonga yaqinlashtirib, tap-tup urdim. Biroq, jonivor parvo qilmay, o'rnidan ham qo'zg'almadi. So'ng uning beliyu boshiga cho'pni tekkizib, siljitishga urindim. Harakatlarim zoye ketdi: og'zini ochib, tiliini chiqargancha vishilladiyu, ozgina ham siljimadi. Yangi urinishlarim ham natijasiz kechdi. Aksincha, ozroq yurib, karavotning tagiga o'tdi. Bunday vaziyatda uni tashlab ketib bo'lmasdi: yo o'ldirish, yo haydashga erishish zarur.

-Sizlar boringlar, ketishini o'zim poylayman,- dedim-da, ro'paradagi ikkinchi karavotga chiqdim. Bu yerdan ko'z o'zmay uni kuzatish imkoni bor edi. Ammo nevaralarim ham yonimga chiqishdi. Bu antiqa tomoshadan ularni mahrum etish iloji yo'qqa o'xshardi. Yarim soatcha hammamiz karavotdan kuzatganimizdan so'ng ilon bizni tushundimi, dam olishni tugatdimi, har qalay, sekin o'rmalab, teshikdan tashqariga chiqib ketdi.

O'sha kuniyoq teshiklarni toshu samon aralash loy bilan suvab tashladim. Taxta yo'q edi, pol o'rniga toshu tuproq to'kdim. Ustidan qalingina qilib somonli loy bosdim. Qurigach, soz bo'lganiga ishonch hosil qilib, ilon tufayli ortiqcha harajatdan ham qutilganimni tan oldim. Taxtaga hojat qolmadi. Xavf-xatardan ham qutildik. Kim biladi, o'shanda ilonni o'ldirib, doimo ko'nglim g'ash va xavotirda yurarmidim. Nevaralarim quvonishib, shaharga qaytganda: «Bizning uyimizda ilon bor. Uni o'ldirmadik», deya



ONAJONIM

Siz ham jonim, zarrin quyoshim,
Har bir ishda sodiq yo'ldoshim,
Mehringizdan buloqday qonib,
Siz tufayli sog'-omon boshim.

Xasta bo'lsak parvona bo'lgan,
Bedor tunni tonglarga ilgan,
Dilbandiga qalb qo'rin bergan,
Allasila yov bag'rin tilgan.

Uyimizning shamchirog'isiz,
Ko'rar ko'zim, ham qarog'imsiz,
Izingizdan izlarim qo'ydim,
Ona mudom yuragimda siz.

Muyassar b. XT. qizi.

Muhammad SALOM

maqtanib qo'shnilaru o'rtoqlariga gapirib berishdi. Shu bilan birga xushyorlik va ehtiyotkorlikni ham o'rganishdi. Bundan o'zim ham mamnunligimni yashirolmayman.

Biroq, hozirgi holatda-chi?

Buni o'ylab, aniq xulosaga kelolmayman. Aslida bu gazanda meni chaqishni mo'ljallab yo'lga chiqmagan.

Pichan o'rilgach, yangi joy axtargandir. Salqinlikka intilgandir. Harakatsiz yotgan shimimning ochiq pochasi unga qulay tuyulishi mumkin edi. Shunda men harakatlanardimu... Unda... Xudo ko'rsatmasin... Ilon menga yetib kelmasdan boshqa yoqqa burilishi ham ehtimoldan uzoq emasdi. Yo'q, men hurkitmaganimda, Oqtosh ogohlantirmaganida ilon o'z yo'lini o'zgartirishga ishonish qiyin. Hozir ham uni xavfsiz deb bo'lmas. Qayoqqa ketdiykin?

-Ilonvoy, bu yerdan ket, senga bu yerdan o'rin bermayman,-dedim hayajonli, titroqli tovushda hamon cho'p bilan xas-xashaklarni titkilarkanman. Bilishimcha, yurakdan chiqqan so'zlaru fikrlar jonzodlarga ham yetarkan. Shu tushuncham ta'sirida nihoyat:- E, meni poylab o'tiribsanmi,- dedim-da, mashg'ulotimni to'xtatib, uzun kursining beliga holsiz cho'kdim. Butun vujudim go'yo suv bo'lib oqardi: g'ir etgan shabada ham o'ziga zor etgandi. Shunday esada, nigohlarim tevarak-atrofdan, ilon o'tib kelgan qo'shni yerida, xandak tevaragida damma-dam kezinardi. Meni qiziqtirib qo'ygan Oqtoshning ko'z ochganimdagi ko'rinishi ham nazarimdan nari ketmas edi.

-Ajabo, Oqtosh bundan qanday xabar topdi?- degan jumboq menga tinchlik bermasdi. -Biror xavfni sezib, shu yoqqa yo'llanmaganmikan? Har qalay, Olloh taoloning o'zi uni yordamga yuborgani aniq. Boz ustiga tushimda ham ayon etdi-ku! Xudo asrasa olovning ichi ham lolazorga aylanadi, deb bejiz aytilmagan. Ibrohim Alayhiss salom voqeasi bunga yorqin misol. To'rt-besh yil mobaynida o'qlar yomg'iri orasida yurib, jarohat olmay qaytgan jangchilarning qanchasi bilan gaplashmaganman. Balki bugungi ko'rinish Ollohning menga nisbatan yangi sinovidir.

Bu mushohadamni tasdiqlaganday allaqanday hazin tovush quloqlarim ostida shivirlaganday bo'ldi:

-Oqtoshga befarq bo'lma, undan jirkanma: siylasang-suyuntiradi. ozorlasang-urintiradi.

Alanglab, atrofga qaradim. Hech kim yo'q. Bu so'zlar g'oyibdan eshitildimi yoki o'z qalbidan yog'ildimi, anglolmay qoldim. Va ovoz chiqarib, javob qaytardim:

-Hech kimga, hech nimaga befarq qarab bo'lmaydi. Ayniqsa, odam qo'lga qaram maxluqlarga...

Endi uyga qanday kirish, eshikni buzish-buzmaslik masalasi boshimni qotirardi. Xotin kelguncha biror yegulik ham tayyorlash lozim. U ancha kech qolishi mumkin. Yog'och zinadan ko'tarilib, qulfni salmoqlab ko'rdim. Buzish yengil ko'chadiganga o'xshamaydi.

(Davomi bor).




Aziz bolajonlar! Mana, 2003 yil bilan xayrlashib, 2004 yilni kutib olishimizga ham sanoqli kunlar qoldi. Har biringiz yangi yilni katta ishtiyoq, yangi-yangi orzular, qolaversa, sog'inch bilan kutasiz. Maktab, bog'changizdagi yangi yil bayramlariga Qorbobo va Qorqizlar tashrif buyurib, sizlarni ajoyibu g'aroyib sovg'alar bilan siylaydilar. Zero, ularni biz faqat yangi yil bayramlarida uchratamiz. Yil davomida esa qayerda yashashlari haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Yo'q, deysizmi? Unda yangi yil, Qorbobo va Qorqiz haqidagi ma'lumotlarimizni o'qib ko'ring, bilib olasiz...

QORBOBO QAYERDA YASHAYDI?

Qorbobo yoki barchasiga Santa-Klaus uzoq-uzoqlarda, Finlyandiyaning shimoli Laplandiyada yashaydi. Rovaniyemi shaharchasi (Laplandiya poytaxti) yaqinida «Qorbobo uyhasi» nomli xalqaro sayyohlar markazi ochilgan. Bu uyha kichkina emas, balki kattagina, Fin milliy urf-odatlariga asosida qurilgan uydur. Ushbu uy faqat daraxtdan qurilgan. Uyda mehmonlarni mitti ayollar kutib oladilar. Bolalar Qorbobo ko'rpsida o'tirishlari, ulkan ayiq bilan suratga tushishlari, shirinliklar va o'yinchoqlar sotib olishlari mumkin. Rovaniyemida mehmon bo'lganlar har yili 10.000 tani tashkil qiladi. U yerda ko'pgina muz tepaliklarida uchish, saunalarda parlanish, mahalliy suvenirler sotib olish tashkillangan. Shu bilan birgalikda mehmonlar u yerda katta sandiqni ko'rishlari tabiiy hol. Bu sandiqda turli millat bolalaridan kelgan xatlar saqlanadi. Bunday maktublar bolalardan har yili son-sanoqsiz keladi.

QORBOBO BOSHQA MAMLAKATLARDA QANDAY ATALADI?

Qorbobo yangi yil bayramlarida XIX asr oxirlarida paydo bo'lgan. U yangi yil bayrami bilan qutlab, sovg'alar ulashgani tashrif buyuradi. Lekin bu qariyani hamma joyda turlicha atashadi, masalan: Santa-Klaus, Per-Noel, Yulnissaar, Yuluvana...



Finlyandiyada yangi yil bobosini Youlupkki deyishadi. U qizil rangdagi kiyimda, boshida uzun konussimon shapka bo'lib, shapka tagidan uzun sochlari ko'rinib turadi. Youlupkki mitti odamchalar qurshovida bo'ladi. **Estoniyada** esa Qorboboni Yuluvana deyidilar. U o'zining finlyandiyaalik qarindoshiga juda o'xshab ketadi.

Shvetsiyada Qorbobo ikki xil ko'rinishda bo'ladi: katta burunli bukr bobo - Yultomten va pakana Yulnissaar. Unisi ham, bunisi ham yangi yilda uylarga borib, deraza tokchalariga sovg'alar qo'yib ketishadi.

Fransiyada ham ikkita Qorbobo bo'lib, birining ismi Per-Noel, ikkinchisniki esa Shaland. Per-Noel juda sahiy bo'lib, bolalarga sovg'a ulashadi. Soqolli Shaland esa qalin qalpoq va issiq plash kiyib yuradi. Uning savatida quloqsiz va dangasa bolalar uchun maxsus sovg'alar bo'ladi. Shalandning e'tiborini qozonish



QORBOBO QAYERDAN KELGAN?

Yevropada Avliyo Nikolay haqida afsona mavjud. Yangi Amsterdam shahridagi birinchi cherkovlardan birining nomi Sintler Klass yoki Sint Nikolaas deb nomlangan. Amerikada inglizlarning ta'siri kuchlaygan va yangi Amsterdam nomi Nyu-York deb o'zgartirilganda cherkov Santa-Klaus deb atala boshladi.

1822 yili Amerikada Klara Klark Muraning «Avliyo Nikolayning kelishi» nomli poemasi paydo bo'ldi. Unda bir bolaning Avliyo Nikolay bilan uchrashuvi sirli tarzda bayon etiladi. Bu uchrashuvda avliyo jiddiy inson ko'rinishida emas, aksincha, quvnoq va sahiy qiyofada gavdalanadi. Avliyo Shimoliy qutbda yashab, sakkizta kiyikka sovg'a ortib, butun jahon bolalariga tarqatgan. Bu poemaning dunyoga kelishi Qorboboning paydo bo'lishi bilan bog'lanadi.



uchun bolalar unga qo'shiq aytib beradilar.

Kiprda Qorboboni Vasiliy deb atashadi. Bolalar yangi yilda Vasiliyga: Avliyo Vasiliy, bizga baxt ato et, hamma orzularimizni ro'yobga chiqar, degan ma'nolarda ashulalar aytishadi.


Italiyada sal boshqacharoq. U yerda qariya Befana yangi yil kechasi uy mo'risidan tushib, yaxshi bolalarga sovg'alar beradi.

Baskovda Qorbobo Olentsero deb nomlashgan. U milliy kiyimda bo'lib, yonida doimo ispan vinosini olib yuradi.

Ruminiyada Mosh Jerile deyishadi. U juda ham o'zimizning Qorboboga o'xshab ketadi.

Ruslarda hammamizga mashhur o'sha Qorbobo - Ded Moroz. Uning qizil burni, uzun oppoq soqoli va hassasi barchamizga birdek ma'lum. U bayramlarga sovg'alar to'la qopi va sevimli nabirasi Qorqiz bilan tashrif buyuradi.

Musulmon mamlakatlarida may boshlarida Xizir Ilyos nomli



qariya sovg'alar bilan tashrif buyuradi. Boshida qizil qalpoq, bo'ynida yashil sharf va yashil cho'pon kiygan holatda namoyon bo'ladi.

O'tgan asrlarda G'arbiy yevropaning ko'p mamlakatlarida Qorbobo, Santa-Klaus hozirdagidek quvnoq va sahiy bo'lmagan ekan. Nemis shaharlar va qishloqlarida Qorbobo juda qo'rqinchli holatda, soqol ko'rinishida paydo bo'lgan. U bolalarni qo'rqitib, to'polon qilsalar, qopiga solib olib ketishini aytgan. Uni Knex Ruprext deb atashgan va undan hech kim sovg'a kutmagan.

Yangi yil bayramlarida Qorbobo o'tgan asr oxirlarida paydo bo'ldi. Bugungi kunda uning tashqi ko'rinishi taxminan bir xil: chetlan oq mex bilan qoplangan qizil qalpoq va shuba, oppoq soqol, sovg'a to'la qop.

Internet xabarlarida Gulyuz VALIYEVA tayyorladi.

Yaqinda uyimizdagi kattalar- otam, onam Ramazon oyi ro'zasini tutdilar. Biz uxlab yotganimizda «saharlik» qilishardi. Lekin iftorlik paytida dasturxonada albatta nisholda qo'yilishini kuzatdim. Onamlarga bu qanday tayyorlanadi, nimalardan qilinadi, nima uchun nisholda shirin va oppoq, degan savollarni berdim. Shunda onam men tayyorlayotganimda o'zing ko'rgin,-dedilar. Nisholdani tayyorlash uchun onam shakar, tuxum oqini, suv, yetmak kerakligini aytdilar. Ular bir tog'orachaga shakar va suvni solib qaynatdilar, ya'ni qiyom tayyorladilar, u sovib turdi.

NISHOLDA Boshqa idishda qandaydir yetmak deb ataladigan o'simlik ildizini yuvib, maydalab, suvda uni ham qaynatdilar. Yetmak ham qaynab chiqdi. Uni dokadan o'tkazdilar. Uni ham sovutdilar. Ana endi asosiysi boshlandi: yetmak suvi bilan tuxum oqini ko'pirtirdilar. Keyin bu oq ko'pikka haligi sovub turgan qiyomdan 1-2 qoshiq qo'shib, yana aralashtiraverdilar.

Men o'g'il bola bo'lsam ham, uni tayyorlash yo'lini yaxshi bilib oldim. Onamlarning aytishlaricha, nisholdani ilgari erkak


«PARVARDA YEGANMISIZ?» TANLOVIGA

Mening onam o'qituvchi bo'lsalar-da, lekin shirinliklarni, qandolat mahsulotlarini juda mazali tayyorlaydilar. Ularning tayyorlagan shirinliklarini ukam ikkimiz mazza qilib tanavvul qilamiz. Men hozir sizlarga onam nisholdani qanday tayyorlaganlari haqida hikoya qilib bermoqchiman.



kishilar ham tayyorlar ekanlar, chunki uni aralashtirish uchun katta kuch kerak. Shunda nisholda quyuq, rangi oppoq, yog'och kurakchani botirganda cho'zilib chiqar ekan. Men bilan ukamga yoqadigan tomoni - u nihoyatda shirin, yopgan nonni botirib yesa, mazza ekanligidir. Nisholdani tayyorlash uchun tuxum oqini ishlatdik. Tuxumdan chiqqan sariqlarni endi nima qilamiz, degandim, oyimlar ularni endi chak-chak tayyorlash uchun ishlatamiz, dedilar. Chak-chakning qanday tayorlanishi haqida esa keyinroq so'zlab beraman.

Azizbek BEKJONOV,
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
gimnaziyasining 6- «V» sinf o'quvchisi.



Bo'yiga: 1. Yomg'irdan so'ng chiqadi. 2. Suv jonivori. 3. Chanqoq. 4. Dam olish joyi. 7. Zumrad va ... 10. Tarelka. 12. Futbol yulduzi. 14. Aziz ne'mat. 15. Qattiq jism. 18. Qizlar ismi. 19. Aloqa vositasi. 21. Qizlar ismi. 24. Baliq turi. 25. Qimmatbaho tosh.

Eniga: 5. Guldun-gulga qo'nadi. 6. Viktoriya, Anxel...si. 8. Sinov, tekshiruv. 9. Bosh kiyimi. 11. Qalin ip. 13. Teg desam tegmaydi, tegma desam, tegadi. 16. O'g'il bola ismi. 17. Ko'mak. 20. Oz. 22. Zarur, shart. 23. Izg'irin. 26. Gullar malikasi. 27. Osti tosh, usti tosh, o'rtasida jondor bosh. 28. Jamoa, guruh.

Tuzuvchi:

Jahongir JO'RAYEV,

Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyining 10- «A» sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Bosh muharrir o'rinbosari:

Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Umida ABDUAZIMOVA

(Bosh muharrir),

Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa

MUSURMONOVA,

Qahramon

QURONBOYEV,

Po'lat MO'MIN,

Mukarrama

MURODOVA,

Tohir MULLABOYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir

«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi
kompyuter bo'limida
terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«O'zbekiston»
nashriyoti matbaa
bazasida chop etildi.

Adadi - 10519

Korxonalar manzili:

700129,

Toshkent,

Navoiy

ko'chasi, 30.

Buyurtma № 1 - 25

Gazetani

Otabek

ESHCHANOV

sahifaladi.

Navbatchi:

Gulyuz

VALIYEVA

Bizning elektron
pochtamiz:
ijod@uzpak.uz

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08

144-62-34

Tel./ faks:

(99871) 144-37-24